

**ARXIV HUJJATLARI SO‘ZLAGANDA: 1980-YILLARDA DENOVI
QISHLOQ XO‘JALIGI QANDAY BO‘LGAN? G‘ALABA KOLXOZI
MISOLIDA.**

Denov tadbirkorlik va boshqaruv instituti talabasi

Abdumannonova Aziza

Annotatsiya: Ushbu maqolada 45 yil oldingi iqtisodiy holat va hozirgi davr solishtiriladi. O‘shanda makkajo‘xori, paxta va chorvachilik qanchalik muhim bo‘lgani, kolhoz tizimining ishlash mexanizmi tushuntiriladi. Dala qahramonlari denovlik g‘alaba kolhozi ishchilari mehnati natijalari eslanib o‘tiladi va 1980 yillardagi qishloq xo‘jaligi hayoti qayd etiladi.

Kalit so‘zlari: Paxta, makkajo‘xori, kolhoz, chorvachilik mahsulotlari, parandalar, go‘sht mahsuloti, rais so‘zlari, planlar haqida ma‘lumotlar

Аннотация: В данной статье сопоставляются экономическое положение 45-летней давности и современный период. Разъясняется, насколько важными механизмами работы колхозной системы в то время являлись кукурузоводство, хлопководство и животноводство. Вспоминаются результаты труда тружеников полей деновского колхоза «Победа» (G'alaba) и отмечается сельская жизнь в 1980-х годах.

Ключевые слова: Хлопок, кукуруза, колхоз, продукты животноводства, птица, мясная продукция, председатель, слова председателя, сведения о планах.

Abstract: This article compares the economic situation of 45 years ago with the modern period. It explains how crucial corn growing, cotton growing, and livestock farming were as operating mechanisms of the collective farm (kolkhoz) system at that time. The labor achievements of the field workers of the Denau collective farm "Victory" (G'alaba) are recalled, and rural life in the 1980s is highlighted.

Keywords: Cotton, corn, collective farm (kolkhoz), livestock products, poultry, meat products, chairman, chairman's words, information about plans.

Kirish: Denov tumanidagi "G'alaba" kolxozi aniq bir yirik xo'jalik sifatida 1930-yillarning ikkinchi yarmi va 1940-yillarning boshi (Ikkinchi jahon urushi arafasi va urush yillari) oralig'ida sovet hokimiyatining yoppasiga jamoatlashtirish (kollektivizatsiya) siyosati natijasida tuzilgan. Tarixiy asos: Tarixiy arxiv hujjatlarida Surxondaryo va Denov atrofidagi "G'alaba" nomli kolxozlar urush yillarida (1941–1945) front ortida paxta, g'alla va pilla yetishtirishda faol qatnashgan jamoalar sifatida qayd etila boshlangan.

Rivojlangan davri (1950–1980-yillar) Siz yuborgan arxiv hujjati va annotatsiyada aks etgan 1980–1981-yillar kolxozning eng gullab-yashnagan, iqtisodiyoti baquvvat bo'lgan davri hisoblanadi. Bu vaqtda u ko'p tarmoqli yirik qishloq xo'jaligi korxonasi edi. 3. Tugatilishi va qayta tashkil etilishi (1990–2000-yillar) "G'alaba" kolxozi to'g'ridan-to'g'ri yo'q bo'lib ketmagan, balki O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bosqichma-bosqich islohotlar natijasida tugatildi: 1992–1998-yillar: O'zbekiston Respublikasining "Kollektiv xo'jaliklari (kolxozlar) to'g'risida"gi qonunlari o'z kuchini yo'qotgach, "G'alaba" kolxozi "G'alaba" jamoat xo'jaligi (shirkat xo'jaligi) qilib qayta nomlandi va mulkchilik shakli o'zgardi. Yakuuniy tugatilish davri (2004–2006-yillar): O'zbekistonda qishloq xo'jaligini to'liq fermerlashtirish tizimiga o'tish to'g'risidagi davlat dasturlariga muvofiq, barcha shirkat va jamoat xo'jaliklari tugatildi. "G'alaba" jamoat xo'jaligi ham 2000-yillarning o'rtalarida (taxminan 2004–2005-yillarda) rasman tugatilib, uning yerlari alohida-alohida mustaqil fermer xo'jaliklariga bo'lib berildi.

Asosiy qism: Kolxoz chorvachiligi va sut plani hisoboti... plenum qarorlarida katta ahamiyat berilmoqda. Kolxozimiz chorvadorlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va davlatga sotish planlarini oshirib ado etdilar. Shu bilan bir vaqtda davlatga jun, tuxum tayyorlash planlarini bajarib olgandilar. Kolxozimizda chorva bosh sonlari quyidagicha bajarildi: Qoramollar 98%-ga, shu jumladan sigirlar 100%-ga, qo'y va echkilar 85%-ga, shundan ona sovliqlar 79%-ga, cho'chqalar 90%-ga, shundan ona baytallar 75%-ga, parrandalar 135%-ga, shundan ona tovuqlar 100%-ga, g'ozlar 100%-ga, shundan ona g'ozlar 100%-ga. Kolxozimizda sut ishlab chiqarish plandagi 836 tonna o'rniga 891 tonna sut olib, plani 107%-ga bajardi. Shu jumladan fermalar bo'yicha quyidagicha bajarildi:

1-sut-tovar ferma: Hakimov plandagi 325 tonna o‘rniga 325 tonnaga bajarib planni 100%-ga bajardi. 2-sut-tovar ferma: Bobomurodov plandagi 247 tonna o‘rniga 284 tonna sut olib planni 112%-ga bajardi. 3-sut-tovar ferma: Ostonov plandagi 265 tonna o‘rniga 285 tonna sut olib planni 108%-ga bajardi. Ilg‘or sut sog‘uvchilarimiz mollarni yaxshi parvarish qilib, o‘z zimmasiga olgan sotsialistik majburiyatlarini oshirib bajarib, boshqalarga o‘rnak bo‘lmoqdalar. Choriyeva Fotima: o‘ziga birkirilgan 16 bosh sigirning har boshidan plandagi 1912 litr o‘rniga 2118 litrdan sut sog‘ib olib, planni 111%-ga bajardi. Choriyeva Oltinoy: har boshidan 2363 litrdan sut sog‘ib olib, planni 123%-ga bajardi. Pul ajratish va cho‘ponlar ish haqi masalasi O‘rtoqlar kolxozda ikki marta sseminar majlislar bo‘ldi, shu vaqtda sarflangan mahsulot produktalar povor Mamatqulovni hisobidan chiqarilsin. O‘rtoqlar 1981-yilda 9-may kuni fashistlar Germaniyasi ustidan g‘alaba qozonganligining 36 yilligi munosabati bilan urushda qatnashganlarga, urush va nogironlarini mukofotlash uchun kolxoz fondidan 5000 besh ming so‘m ajratilsin. O‘rtoqlar Bobotog‘dagi oraliq ferma Mengliyev Jahongir va feldsher hamda tabelchisi Mo‘minov Raxmatullalar oilasi 120 bir yuz yigirma so‘mdan qilib belgilansin. O‘rtoqlar 1981-yilda qo‘ylardan qo‘zi olish va qo‘zini sog‘lom saqlab, to‘liq topshirganidan keyin kolxoz zootexnikining aktiga asosan bir bosh qo‘zi uchun mol boquvchi cho‘ponlarga 4 so‘mdan ish haqi hisoblab o‘zini kolxoz buxgalteriyasiga topshirilsin deb, kolxoz raisi Egamberdi Rahimov, kolxoz raisi muovini Aliqulov, kolxoz bosh agronomi Qobilov, agronom Aliyev, kolxoz bosh muhandisi Sottorovlarni so‘zidan keyin majlis qaror qiladi. Pul ajratish va cho‘ponlar ish haqi masalasi O‘rtoqlar kolxozda ikki marta sseminar majlislar bo‘ldi, shu vaqtda sarflangan mahsulot produktalar povor Mamatqulovni hisobidan chiqarilsin. O‘rtoqlar 1981-yilda 9-may kuni fashistlar Germaniyasi ustidan g‘alaba qozonganligining 36 yilligi munosabati bilan urushda qatnashganlarga, urush va nogironlarini mukofotlash uchun kolxoz fondidan 5000 besh ming so‘m ajratilsin. O‘rtoqlar Bobotog‘dagi oraliq ferma Mengliyev Jahongir va feldsher hamda tabelchisi Mo‘minov Raxmatullalar oilasi 120 bir yuz yigirma so‘mdan qilib belgilansin. O‘rtoqlar 1981-yilda qo‘ylardan qo‘zi olish va qo‘zini sog‘lom saqlab, to‘liq topshirganidan keyin kolxoz zootexnikining aktiga asosan bir bosh qo‘zi uchun mol

boquvchi cho'ponlarga 4 so'mdan ish haqi hisoblab o'zini kolxoz buxgalteriyasiga topshirilsin deb, kolxoz raisi Egamberdi Rahimov, kolxoz raisi muovini Aliqulov, kolxoz bosh agronomi Qobilov, agronom Aliyev, kolxoz bosh muhandisi Sottorovlarni so'zidan keyin majlis qaror qiladi va unga ko'ra ishlar quyidagicha taqsimlanadi.

G'o'za parvarishi va hasharotlarga qarshi kurash qarori Qaror qilindi: 1. G'o'za qator orasida tezda yagonani tamom qilish, o'tga bostirmaslik uchun paxta qator orasiga borliq odamni jalb qilib, ish kunidan to'liq foydalanishni safarbar qilish uchastka agronomlariga va barcha brigada boshliqlariga topshirilsin. G'o'zani chuqur kultivatsiya qilib, kultivatsiya orqasidan yengil chopiq o'tkazib, oziqlantirib tezda sug'orishni ta'minlash uchastka agronom va brigada boshliqlariga topshirilsin. G'o'zani hasharot va shira va boshqa zararkunandalardan saqlash uchun ikki kun ichida dalaga OBX va OShU, ODNlarni chiqarib yuborilishi va ishlatilishi kolxoz bosh muhandisi Sottorovga va uchastka mexaniklarga va entomolog agronom Aliyev va Damminga qattiq topshirilsin. Bandixon massividagi ahvolni tuzatish, tezda suv olib g'o'zani to'liq ko'kartishni kolxoz bosh agronomi Qobilovga, uchastka agronomi Raxmonovga topshirilsin. Chorvachilik uchun yem-xashak tayyorlashga quyidagi o'rtoqlarga yuklatilsin. Kolxoz raisi muovini...

ashkiliy masalalar, ot berish va yangi tayinlovlar... Aliqulov, bosh zootexnik Odinaev, boshliq Qashqa, grabellar transport va 20 odam operativ berish kolxoz pravleniyasiga topshirilsin, va yem-xashakka brigadir qilib Qobilov Sulaymon tayyinlansin, ish haqi maoshi 140 so'm deb belgilansin. Kolxozdagi olma-uzum, poliz, sabzavot ekinlarini hasharotga qarshi tez-tez ishlov berib turish va ishlov berdirish kolxoz entomolog agronomi Aliqulov, agronom Mengliyevlarga topshirilsin. Kolxozda ko'p yil, yillar davomida ishlab, qarib qolgani uchun Qodirov Hoshim va kolxoz pravleniyasiga bergan arizaasiga asosan bir bosh 1980-yilgi erkak yilqi (ot) ish haqi yoki bo'lmasa naqd pulga berilsin. Kolxoz a'zosi Bobomurodov Eshpo'latga tomorqa uchastkasi o'lchab berish kolxoz yer tuzuvchisi Choriyevga topshirilsin. 4-maydan boshlab Ermatov To'shbeq transport brigadasiga yordamchi mexanik deb tayyinlansin. Kolxoz povori Mamatrahimov... 5-sahifa: Seminar xarajatlari va qaror yakuni... soat hisobidan kolxozda o'tkazilgan seminar majlis vaqtida sarflangan mahsulot kolxoz zarariga chiqarilsin. Ulug'

Vatan urushining 36 yilligi munosabati bilan Ulug‘ Vatan urushi qatnashuvchi va veteranlariga 9-may 1981-yil mukofotlash uchun 5000 besh ming so‘m kolxoz fondidan ajratilsin. Oraliq ferma mudiri Mengliyev Jahongir va vetfeldsher Mo‘minov Raxmatullalarning ish haqi ikkalasini ham 120 bir yuz yigirma so‘mdan deb belgilansin. 1981-yilda qo‘ylardan qo‘zi olish onasidan ajratib sog‘lom saqlab qolgani uchun Zootexnik aktiga asosan har bir bosh qo‘zi uchun 4 to‘rt so‘mdan ish haqi hisoblab berilsin, kolxoz buxgalteriyasiga topshirilsin deb ushbu qaror o‘qib eshittirildi, bir ovozdan ma‘qullandi, kolxoz pravleniya qarorini tasdiqi kolxoz umumiy majlisidan so‘ralsin. Majlis raisi: Rahimov, Majlis kotibi: Shaimardonov, Pravleniya a‘zolari: To‘rdaliyev, Aliqulov. Prezidium davomi va 1979-yilgi yillik reja hisoboti Prezidium a‘zolari davomi: 21. Egamkulov Soat, 22. Sottorov Farxod, 23. Mo‘minov Turg‘un, 24. Turdiyev To‘ymurod, 25. Almardanov Isomat. Kun tartibida: 1. Kolxoz pravleniyasining 1979-yilgi moliya-xo‘jalik faoliyatining hisoboti. 2. Kolxoz reviziya komissiyasining 1979-yilgi hisoboti. 3. Kolxoz xotin-qizlar sovetining yillik hisoboti. 4. Har xil tashkiliy masalalar. Eshitildi: Birinchi masala yuzasidan so‘zga chiqqan kolxoz pravleniyasining raisi o‘rtoq Niyozov: kolxozimiz mehnatkashlari KPSS MK-ning XXV-syezi va 1979-yil noyabr plenumi qarorlaridan ruhlangan holda 10-nchi besh yillikning 4-nchi yilida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish va davlatga sotish bo‘yicha yillik planlarni oshirib bajardilar. O‘rtoqlar, kolxozimizda 1980-yil 1-janvar kuniga 1654 xo‘jalik bo‘lib, bu xo‘jaliklarda 11384 jon soni bor. O‘tgan yilga nisbatan 25 xo‘jalikka, 301 jon soniga ko‘paydi. 12-sahifa: Ekinlar hosildorligi va brigadalar ko‘rsatkichlari... yaratishda ko‘p ishlar qilindi, natijada silos, somon, beda kabi ozuqa donalari yetarli darajada to‘plandi. Yem-xashak brigadalari To‘rayev Eshonqul, Egamqulov Soat, Xolboyev, Mamatraximovlar yaxshi mehnat qilishlari natijasida har bir gektar beda maydonidan 228 tsentnerdan beda hosili yig‘ishtirib olindi. Kolxozimiz 10 gektarga sholi ekib, har gektaridan plandagi 40 tsentner o‘rniga 40,5 tsentnerdan hosil olib, plani 101,2%-ga bajardi. O‘rtoq Yaqubov Abduzoir brigadasi 16 gektar maydonga kartoshka ekib, plan bo‘yicha 136 tonna kartoshka olish o‘rniga 130 tonna olib, plani 95,7%-ga bajardi xolos. Jo‘rayev Dona rahbarlik qilayotgan uzumchilik brigadasi plandagi 78 tonna uzum

olish o‘rniga 35 tonna uzum olib, planni 44,6%-ga bajardi xolos. Uzum bog‘ining o‘zidan 3007 so‘m zarar keltirdi. Bog‘ brigada Xoldorov Qori qariyb 25 gektar bog‘idan 150 tonna olma olish o‘rniga 188 tonna olma olib, planni 125%-ga oshirib bajardi. Sabzavotchilik brigasi Chori Afanas plandagi 221 tonna piyoz olish o‘rniga, 221 tonna piyoz olib, planni 100%-ga bajardi. O‘rtoqlar, kolxozimizda chorvachilik tarmog‘i asosiy tarmoq hisoblanadi. Bu soha KPSS MK-ning 1978-yil iyul plenumi qarorlarida va keyingi MK...13-sahifa: Ilg‘or mexanizatorlar va fidokor suvchilar ro‘yxati Bu brigadalarimiz o‘zlariga birkirilgan texnika, ishchi kuchi, mineral o‘g‘itlardan samarali foydalanmaslik oqibatida yillik paxta tayyorlash planlarini bajara olmadilar. Kolxozimizning paxta tayyorlash planlarini oshirib bajarishda ilg‘or mexanizatorlar va suvchilarimizning fidokorona mehnatlari katta bo‘ldi. Ilg‘or mexanizatorlarimizdan Mengqobilov Ziyodulla, Qobilov Asad, Saidov Abdug‘ani, Safarov Juma, Quvvatov Turg‘un, Abdullayev Xurram, Safarov Jumanazarlar xizmatini alohida ko‘rsatib o‘tishimiz lozim. Yerni sifatli qilib haydagan dizelli traktorlardan Ro‘ziyev Mardan, Murodov Tanri, Bo‘tayev Mengqobil, Xolmo‘minov Xudoynazar, Qodirov Rashid, Umarov Yo‘ldosh, Jo‘rayev Mardanlar fidokorona mehnat qildilar. Kolxozimizdagi ilg‘or suvchilardan Xaitov Juma, Eraliyev Bo‘ri, Ashurov Aliqul, Ismoilov Samandar, Xo‘jamurodov Ziyoy, Qobilov Magaramad, Suyunov Xoliq, Omonqulov Xo‘jan, Eshniyozov Abraxmat, Rahimov Yusuf, Jovliyev Mamatraxim, Xudoyqulov Xotam, Shaimardonov Ergash, Kenjayev Xurram, Xo‘janazarov Ismoil, To‘rayev Toshpo‘lot, Bekmurodov Xoliqul, Jumanazarov Xushboq, Mengnorov Ibrohim, Ashurmurodov Shomurodlar va boshqa ko‘plab suvchilarimiz fidokorona xizmat qildilar. Bu yil obi-havoning nokulay kelishi natija...

Ammo paxta terimi, maktablar yordami va g‘alla planlari dardi...sida mashinada paxta terish planini bajarolmadik. Lekin Bandixon massivida joylashgan brigadalarimizda mashinada paxta terish yaxshi bo‘ldi. Mexanik-voditellardan Shukurov Ziyoy, Ro‘ziyev Toshboy, Ismoilov Xushboq, Boyqulov Bo‘ron, Quvvatov Ergash, Abdullayev Navro‘zlar mavsumda 50-100 tonna paxta terib munosib hissalarini qo‘shdilar. Paxta planini bajarishda kolxozimiz territoriyasida joylashgan maktablarning o‘quvchi va o‘qituvchilar kollektivi katta yordam qildilar. O‘quvchi va o‘qituvchilar kollektiviga katta

minnatdorchilik bildiramiz. Oʻrtoqlar kolxozimiz gʻallakorlaridan ishlab chiqarish va davlatga sotish planlarini oshirib bajardilar. Ayniqsa makkajoʻxori doni yetishtirish va davlatga sotishda Toʻrayev, Egamberdiyev, Yaqubovlar boshliq makkachilik brigadalari har bir gektar makka maydonidan 100-105 tsentnerdan hosil olib munosib hissa qoʻshdilar. Suvli yerda arpa-bugʻdoy ekkan Toʻrayev va Xolboyev boshliq brigadalar hosilni chigirtkaga yedirib yuborish natijasida yillik planini bajarolmadilar. Gʻalla brigadir Qurbonov Rahmon plandagi 198 tsentner oʻrniga, (59) 176 tonna gʻalla olib planni 90,1%-ga bajardi xolos. Gʻalla brigadir Boboqulov Safar plandagi 71 tonna oʻrniga, 59 tonna gʻalla olib planni 83,39%-ga bajardi xolos. 1979 xoʻjalik yilida chorvaga yem-xashak bazasini...

Majlisni yakunlash uchun soʻz kolxoz raisi Egamberdi Rahimovga: — Oʻrtoqlar, shu kecha-kunduzda dalada boʻlmasin, chorvada boʻlmasin, yem-xashak tayyorlashda boʻlmasin, texnikada boʻlmasin ishimiz oxir boʻlib turibdi. Oʻrtoqlar paxtani olaylik, oʻt bosgan, koʻsak qurti, hasharot tushgan, dalaga dori sepilmayapti, suv quyish oʻz holiga tashlab qoʻyilgan. Buni uchun mutaxassis agronom, brigadir, injenerlar ishlamaydi, oʻz vaqtida ishni tashkil qilmayapti, dalaga odam kam chiqadi. Dalaga odam chiqishini brigada va uchastka agronom...10-sahifa: Protokol № 1 (Umumiy majlis qatnashchilari roʻyxati) Protokol № 1 — 1980-yil 18-yanvar. Surxondaryo oblasti Denov rayonidagi "Gʻalaba" kolxozining aʼzolarining umumiy yigʻilishida 2168 nafar qatnashishi kerak edi, shundan 1804 nafar kolxozchi qatnashmoqdir. Umumiy majlis raisi: Aliqulov Xudoyqul. Sekretarlari: Mardonov Eshontoʻra, Davlatov Nematilla, Doʻstov Raxmatulla. Ishchi prezidiumi aʼzolari roʻyxati: Eshmatov Ismatulla, 2. Tursunmurodova Jamila, 3. Aliqulov Xudoyqul, 4. Mamataliyeva Salomat, 5. Qobilov Hamza, 6. Abdimuromov Mursurmon, 7. Aliyev Bozor, 8. Yaxshiboyev Abdiraxmon, 9. Mamataliyev Abray, 10. Ostonagulov Xurram, 11. Bekmurodov Nuriqul, 12. Turdaliyeva Hisoat, 13. Niyozov Abduraxmon, 14. Rahimov Anvar M., 15. Shaimardonov Abdugʻofur, 16. Shaimardonov Ergash, 17. Rahimov Egamberdi, 18. Joʻrayev Abdimurot, 19. Meningnorov Ibrohim, 20. Odinaev Xushboqlar ishtirok etdi. Majlis yakunlandi. Sekratar Rahmatulla Moʻminov malisdagi soʻzlarni yozib oldi va rasmiylashtirdi, Ushbu maʼlumotlar Denov tuman arxividan olindi va rasmiylashtirildi.

Xulosa: Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 1980-yillarga oid arxiv hujjatlarining tahlili Denov tumanidagi "G‘alaba" kolxozi misolida o‘sha davr qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv tizimining o‘ziga xos mexanizmlarini yaqqol ko‘rsatib beradi. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, mazkur jamoat xo‘jaligi paxtachilik, makkajo‘xorichilik va chorvachilik tarmoqlari o‘zaro integratsiya qilingan ko‘p tarmoqli va iqtisodiy jihatdan baquvvat tuzilma bo‘lgan. Kolhoz raisi Egamberdi Rahimov boshchiligidagi boshqaruv tizimi nafaqat ishlab chiqarish rejalarini bajarish, balki urush qatnashchilarini hamda Bobotog‘ kabi uzoq hududlardagi chorvadorlarni moddiy rag‘batlantirish kabi kuchli ijtimoiy siyosatni ham muvaffaqiyatli olib borgan. Ushbu tarixiy tajriba qishloq xo‘jaligi o‘tmishini o‘rganishda va bugungi agrar islohotlarni tahlil qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergashev Q. O‘zbekiston agrar sohasi tarixi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 215 b. (Shirkat va fermerlik islohotlari davrini yoritish uchun).
2. Denov tumanlararo davlat arxivi fondi hujjatlari. 1981-yilga oid "G‘alaba" kolxozi boshqaruv majlisi bayonnomalaridan ko‘chirmalar va shaxsiy tarkib hujjatlari (Birlamchi arxiv manbasi).
3. O‘zbekiston Respublikasi "O‘zarxiv" agentligi rasmiy materiallari. Denov tumani davlat arxivi tarixi va uning "G‘alaba" kolxozi binosida shakllanishiga oid ma’lumotlar platformasi. – URL: archive.uz.
4. Denov tumani Axborot-kutubxona markazi o‘lkashunoslik materiallari va tuman tShamsutdinov R. O‘zbekistonda jamoatlashtirish va qishloq xo‘jaligini fojiali tarixi (XX asr 30-80-yillari). – Toshkent: Sharq, 2003. – 320 b.